



ISSN 2181-1296

# ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2022-yil, 1-son (131) TABIIY FANLAR SERIYASI

Kimyo, Biologiya, Geografiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.  
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:

H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent

A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI:

N. B. FERAPONTOV

- k.f.d., professor (Moskva davlat universiteti, Rossiya)

SH. M. TUGIZOV

- professor, Koliforniya universiteti, AQSh

H. I. AKBAROV

- k.f.d., professor (O'zMU)

E. A. ABDURAXMONOV

- k.f.d., professor (SamDU)

N. K. MUXAMADIYEV

- k.f.d., professor (SamDU)

VEENA AGRAWAL

- Dehli universiteti professori, Hindiston

K. G. TOKHADZE

- Sank Peterburg davlat universiteti professori, Rossiya

L. A. BULAVIN

- Kiev milliy universiteti professori, Ukraina

X. Q. XAYDAROV

- b.f.d., professor (SamDU)

Z. I. IZZATULLAYEV

- b.f.d., professor (SamDU)

Sh. T. XOLIQULOV

- g.f.d., professor (SamDU)

MIHAY BULAI

- Aleksandr Ioan Kuza universiteti professori, Ruminiya

GUN-SIK PARK

- Seul univeriteti professori, Koreya

## MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

## KIMYO / ХИМИЯ / CHEMISTRY

**Nurqulov F.N.**

Oligomer antipirenlar asosida yog' och qurilish materiallarni yong'inbardoshlik xossalarni tadqiq etish

3-6

**Нурбаев Х.И., Халиков К.М., Рузиев Э.А.**

Изучение реакции 2-метилтио-6-метилпиримидин-4-она алкилирующими агентами с Н-бутил и Н-пентилбромидами

7-9

**Матмуродова Ф.К., Хасанов Ш.Б., Абдуллаева З.Ш.**

Координация 2-(диэтиламино)этан-4-аминобензоата с хлоридом Никеля (II)

10-15

**Eshqurbanov F.B., Raximov A.X., Toirova G.X.**

Ховдак bentoniti bilan to'ldirilgan poliakrilonitril kompozitining sorbsion xossalari o'rganish

16-19

**Tagirova M.A., Muxamadiyev N.Q., Balabushevich N.G., Eremeev N.L.,****Klyachko N.L.**

Ikki qatlamli bienzim poliion superoksiddismutaza 1/katalaza kompleksining sintezi va uning xossalari

20-27

**Сулаймонова З.А., Умаров Б.Б., Муталинова Д.Б.**

Синтез и ик спектроскопическое исследование гидразонов 1-ферроценилбутандиона-1,3 и их комплексов

28-33

**Tursunova G.Kh., Karimov Kh.R., Trobov Kh.T., Rakhmanov Dj.A.**

Calculation of the gibbs energy of water sorption on swelling of polymer gels in various solutions

34-38

**Ziyadullayev O.E., Abduraxmanova S.S., Boytemirov O.E., Ikramov A.,****Otamuxamedova G.Q., Bo'riyev F.X.**Ayrim atsetilen spirlarini  $Ti(O^iPr)_4/C_{akt}$  ishtirokida katalitik vinillash jarayoni

39-45

**Ismatov D.M., Arzinurodova X., Muxamadiyev A.N., Muxamadiyev N.Q.,****Uzoqov J.R.**

Kversetin flavonoidining Fe(II) ionlari bilan hosil qilgan kompleks birikmasini kvant kimyoviy baholash

46-49

**Babojanova G.Q., Inxonova A., Yarmanov Sh., Muxamediev M.G.**

Anion almashuvchi materialga kobalt ionlari sorbsiya izotermasi

50-53

**Муртазаев К. М., Мухиддинов Дж.Н., Нуркулов Ф.Н.**

Наполненные эпоксидные композиты с повышенной огнестойкостью вспученные покрытия

54-57

**Jurayeva F.N., Abdikamalova A.B., Eshmetov I.D., O'tashev Y.I.**

Boyitilgan va modifikatsiyalangan Bentonit gil minerallarini analistik tahlil qilish

58-62

## BIOLOGIYA / БИОЛОГИЯ / BIOLOGY

**Haydarov I.A., Eshbekova G.G., Bozorov E.X.**

O'zbekiston mahalliy yong'oq genotiplarini In Vitro usulda mikroklonal ko'paytirish

63-68

## GEOGRAFIYA / ГЕОГРАФИЯ /GEOGRAPHY

**Sherxolov O.I.**

Navoiy viloyati aholisining yosh-jinsiy tarkibi

69-74

**Mualliflarga**

UDK: 547.241.281.362.381.678.727.

**AYRIM ATSETILEN SPIRTLARINI  $Ti(O^iPr)_4/C_{akt}$  ISHTIROKIDA KATALITIK  
VINILLASH JARAYONI**

O.E.Ziyadullayev<sup>1</sup>, S.S.Abduraxmanova<sup>2</sup>, O.E.Boytemirov<sup>2</sup>,  
A.Ikramov<sup>3</sup>, G.Q.Otamuxamedova<sup>1</sup>, F.X.Bo'riyev<sup>1</sup>

<sup>1</sup>*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti*

<sup>2</sup>*O'zbekiston Milliy Universiteti, <sup>3</sup>Toshkent kimyo-tehnologiya instituti  
bulak2000@yandex.ru*

**Annotatsiya.** Turli o'lchamdagи faollangan ko'mirga  $Ti(O^iPr)_4$  ni shimdirish orqali tayyorlangan katalitik sistemada ayrim atsetilen spirtlari vinil efirlarini sintez qilish jarayoni o'rganilgan. Atsetilen spirtlarini vinillash reaksiyalariga harorat, reaksiya davomiyligi, katalizatorlar, substrat va reagentlarning tabiatи hamda miqdorlari ta'siri tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** atsetilen spirtlari, vinil efirlar, faollangan ko'mir, geterogen katalitik sistemalar, mahsulot unumi.

**Процесс катализитического винилирования некоторых ацетиленовых спиртов с участием  $Ti(O^iPr)_4/C_{akt}$ .**

**Аннотация.** Изучен процесс синтеза виниловых эфиров некоторых ацетиленовых спиртов в катализитических системах, приготовленных посредством всасывания  $Ti(O^iPr)_4$  в различные размеры активированного угля. Исследовано действие температуры, продолжительности реакции, катализаторов, природы субстрата и реагентов на реакции винилирования ацетиленовых спиртов.

**Ключевые слова:** ацетиленовые спирты, виниловые эфиры, активированный уголь, гетерогенные катализитические системы, выход продукта.

**Catalytic vinylation of some acetylene alcohols in the presence of  $Ti(O^iPr)_4/C_{act.}$ .**

**Abstract.** The process of synthesizing vinyl esters of some acetylene alcohols in a catalytic system prepared by soaking  $Ti(O^iPr)_4$  in activated carbon of different sizes has been studied. The effects of temperature, reaction duration, catalysts, nature and amount of substrates and reagents on the vinyl reactions of acetylene alcohols have been studied.

**Keywords:** acetylenic alcohols, vinyl ethers, activated carbon, heterogeneous catalytic systems, yield products.

**Kirish**

Atsetilen spirtlari molekulasida uchbog‘, gidroksil guruhi, gidroksil guruhida harakatchan faol vodorod hamda turli xil tabiatga ega bo‘lgan o‘rinbosarlar va funksional guruhlar mavjudligi ularga muhim xususiyat bag‘ishlaydi. Ma’lumki, atsetilen spirtlari gidroksil guruhidagi vodorodi hisobiga almashinish reaksiyasi ketadi, shuning uchun bunday spirtlar asosida har xil qimmatbaho organik birikmalar sintez qilinmoqda [1, 2].

Atsetilen spirtlari molekulasidagi gidroksil guruhi kuchli nukleofil reagentlar ta’siriga chidamsiz bo‘lib, nukleofillar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri almashinish reaksiyasi ketadi. Jumladan Lyuis kislotalari atsetilen spirtlari gidroksil guruhiga shiddatli hujum qilishi, ya’ni gidroksil guruhi elminatsiyasi natijasida elektronlari tanqis bo‘lgan karbakationlar hosil qiladi. Ushbu karbakationlar esa nukleofil reagentlar bilan reaksiyaga kirishib turli xil yangi turdagи organik birikmalarni sintez qilishga xizmat qiladi [3-5]. Oxirgi yillarda turli xil tabiatga ega bo‘lgan spirtlar, diollar va uglevodlarga atsetilen ta’sir ettirish orqali mos ravishdagi vinil efirlar sintez qilingan [6]. XIX asrning oxiri va XX asrning 80 yillariga qadar R.P.Redtenbacher, V.V.Reppe, L.V.Ladenburg, J.R.Klemo, R.Perkin, Yu.A.Trager, F.F.Beylshteyn, B.Tyullens, L.Shefer, M.F.Shostakovskiy, A.E.Favorskiy, B.A.Trofimov va A.V.Orlovlar [7- 11] tomonidan turli funksional guruh saqlagan organik birikmalarning vinil efirlarini sintez qilish ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bugungi kunda atsetilen spirtlari vinil efirlari asosida turli xil yangi avlod vitaminlar, gormonlar, antibiotiklar, antibakteriologik preparatlar (biotsidlar), haroratga chidamli polimerlar, rezina-kauchuk mahsulotlari va molekular elektronika nanomateriallari, tikuvchi va choklovchi agentlar hamda biologik faolligi yuqori bo‘lgan organik birikmalar sintez qilinmoqda, sanoat miqyosida ishlab chiqarilmoqda va amaliyotda keng qo’llanilmoqda [12, 13].


Atsetilen spirtlari molekulasida turli xil tabiatga ega o'rnibosarlar va uchbog'dan tashqari gidrosil guruhida harakatchan faol vodorodning borligi, ularning vinillash reaksiyasi oson ketishiga sababchi bo'ladi. Ushbu ishda ham ayrim atsetilen spirtlarini ilk bor  $Ti(O^{\prime}Pr)_4/C_{akt}$  katalizatori yordamida atsetilen ishtirokida vinillash reaksiyalari o'rganilgan.


### Tajriba qismi

**$Ti(O^{\prime}Pr)_4/C_{akt}$  katalizatori yordamida atsetilen spirtlari vinil efirlari sintezi:** Atsetilen spirtlarini geterogen-katalitik usulda atsetilen ishtirokida vinillash jarayoni gaz fazada kvars shishadan yasalgan vertikal oqimda ishlaydigan reaktor (hajmi 1000 ml) da o'tkazildi. Diametri 2 mm. bo'lgan faollangan ko'mir va  $Ti(O^{\prime}Pr)_4$  foydalanib  $Ti(O^{\prime}Pr)_4/C_{akt}$  katalitik sistemasi tayyorlandi. Reaktor diametri esa 24 mm. ni tashkil qiladi. Dastlab atsetilen spirtlari (2-metil-4-fenilbutin-3-ol-2, 3-metil-1-fenilpentin-1-ol-3, 3-etil-1-fenilgeksin-1-ol-3, 3-etil-1-fenilpentin-1-ol-3, 3,4-dimetil-1-fenilpentin-1-ol-3, 3,4,4-trimetil-1-fenilpentin-1-ol-3, 2,4-difenilbutin-3-ol-2, 1-(2-feniletinil)-siklopetanol, 1-(2-feniletinil)siklogeksanol, 2-metil-1-(2-feniletinil)siklogeksanol, 2-izopropil-5-metil-1-(2-feniletinil)siklogeksanol, 4-fenilbutin-3-ol-2, 1-fenilgeksen-4-in-1-ol-3, 1-siklogeksil-3-fenilpropin-2-ol-1 va 1,3-difenilpropin-2-ol-1) dozatordan aralashtirgich orqali reaktorning yuqori qismidan beriladi. Atsetilen graduirlangan gazgolderdan tozalash sistemasi va reometr orqali aralashtirgichga va undan reaktorga beriladi. Yuqori haroratda hosil bo'lgan gaz-bug' aralashmasi inert qatlam (shisha yoki chinni bo'lakchalari) to'ldirilgan reaktorda kerakli haroratga ega bo'lgach, katalizator sirtida atsetilenning diffuziya jarayoni ketadi. Reaktor harorati termopara yordamida nazorat qilindi, avtotransformator orqali esa boshqariladi. Hosil bo'lgan mahsulot sovutgichda kondensatsiyalanib, yig'gichga tushadi va seperatsiya qilinadi. Gazsimon moddalar esa atmosferaga chiqarilib yuboriladi. Zarur holatda gazgolderga yig'iladi. Hosil bo'lgan katalizat suvli va organik qismdan iborat bo'ladi. Katalizatning organik qismi suvdan ajratiladi, reaksiyaga kirishmagan atsetilen spirtlari kaliy ishqori bilan neytrallandi, distillangan suv bilan yuvilib, suvsizlantirilgan natriy sulfat bilan quritiladi va rektifikatsion kolonna orqali atsetilen spirtlari vinil efirlari – 2-metil-4-fenilbutin-3-ol-2 vinil efiri (92,5%), 3-metil-1-fenilpentin-1-ol-3 vinil efiri (88,0%), 3-etil-1-fenilgeksin-1-ol-3 vinil efiri (86,4%), 3-etil-1-fenilpentin-1-ol-3 vinil efiri (85,1%), 3,4-dimetil-1-fenilpentin-1-ol-3 vinil efiri (84,2%), 3,4,4-trimetil-1-fenilpentin-1-ol-3 vinil efiri (80,0%), 2,4-difenilbutin-3-ol-2 vinil efiri (95,0%), 1-(2-feniletinil)-siklopetanol (88,8%), 1-(2-feniletinil)siklogeksanol (85,0%), 2-metil-1-(2-feniletinil)siklogeksanol (83,3%), 2-izopropil-5-metil-1-(2-feniletinil)siklogeksanol (82,4%), 4-fenilbutin-3-ol-2 vinil efiri (75,0%), 1-fenilgeksen-4-in-1-ol-3 vinil efiri (67,8%), 1-siklogeksil-3-fenilpropin-2-ol-1 vinil efiri (71,0%) va 1,3-difenilpropin-2-ol-1 vinil efiri (84,6%) sintez qilindi, qo'shimcha va qoldiq mahsulotlar alohida ajratib olindi.


### Reaksiya sxemasi va mexanizmi

Ushbu ishda ilk bor turli xil tabiatga ega bo'lgan atsetilen spirtlarini geterogen-katalitik usulda  $Ti(O^{\prime}Pr)_4/C_{akt}$  sistemasini yordamida atsetilen ishtirokida vinillash reaksiyasi asosida 2-metil-4-fenilbutin-3-ol-2 vinil efiri (**1**), 3-metil-1-fenilpentin-1-ol-3 vinil efiri (**2**), 3-etil-1-fenilgeksin-1-ol-3 vinil efiri (**3**), 3-etil-1-fenilpentin-1-ol-3 vinil efiri (**4**), 3,4-dimetil-1-fenilpentin-1-ol-3 vinil efiri (**5**), 3,4,4-trimetil-1-fenilpentin-1-ol-3 vinil efiri (**6**), 2,4-difenilbutin-3-ol-2 vinil efiri (**7**), 1-(2-feniletinil)-siklopetanol vinil efiri (**8**), 1-(2-feniletinil)siklogeksanol vinil efiri (**9**), 2-metil-1-(2-feniletinil)siklogeksanol vinil efiri (**10**), 2-izopropil-5-metil-1-(2-feniletinil)siklogeksanol vinil efiri (**11**), 4-fenilbutin-3-ol-2 vinil efiri (**12**), 1-fenilgeksen-4-in-1-ol-3 vinil efiri (**13**), 1-siklogeksil-3-fenilpropin-2-ol-1 vinil efiri (**14**) va 1,3-difenilpropin-2-ol-1 vinil efiri (**15**) lari sintezi jarayoni tahlil qilingan.






Atsetilen spirtlarini vinillash reaksiyasi sxemasi [14, 15].



Bu erda:  $RR' = -Me$ ;  $R = -Me$ ,  $R' = -Et$ ;  $R = -Me$ ,  $R' = -Pr$ ;  $RR' = -Et$ ;  $R = -Me$ ,  $R' = -^iPr$ ;  
 $R = -Me$ ,  $R' = -^tBu$ ;  $R = -Me$ ,  $R' = -Ph$ ;  $RR' = -^cPt$ ;  $RR' = -^cHex$ ;  $RR' = -Me^cHex$ ;  
 $RR' = -Me^iPr^cHex$ ;  $R = -Me$ ,  $R' = -H$ ;  $R = -CHCHMe$ ,  $R' = -H$ ;  
 $R = -^cHex$ ,  $R' = -H$ ;  $R = -Ph$ ,  $R' = -H$ .

Atsetilen spirtlarini  $Ti(O^iPr)_4/C_{akt.}$  katalizatori yordamida geterogen katalitik usulda atsetilen ishtirokida vinillash reaksiyasi mexanizmi adabiyot manbalariga tayangan holda uch bosqichda borishi taklif etildi.



Atsetilen spirtlarini  $Ti(O^iPr)_4/C_{akt.}$  katalizatori yordamida vinillash reaksiyasi boshlang'ich moddalar va katalizatorning agregat holati turlich bo'lganligi sababli jarayon fazalar chegarasida uch bosqichda boradi. Bunda dastlabki bosqichda atsetilen spirtlari katalizator yuzasiga hujum qiladi, ya'ni

$Ti(O'Pr)_4/C_{akt.}$  yuzasida atsetilen spirtlari molekulalari joylashadi va bu esa o‘z o‘rnida deformatsiyaga uchraydi, natijada titan tetraizopropilosid molekulasidagi anionning chiqib ketishi va unga spirtlari molekulasidagi vodorod kationini birikishi, ya’ni chegaralovchi (limitlovchi) bosqichi kuzatiladi. Titan kationi esa atsetilen spirtlari anioni bilan o‘zarbo‘lgan reaksiyaning kinetik bosqichiga intilishi kuzatiladi va barqarorligi hamda faolligi yuqori bo‘lgan alkogolyatlarga aylanadi. Keyingi bosqichda faol komponent hisoblangan atsetilen spirtlarining titanli alkogolyatiga atsetilenning adsorbsiyalanishi kuzatiladi. Bunda reaktorda bosimning ortishi hisobiga reaksiya tezligi va katalizatorning faolligi ortishi bilan  $Ti-O$  bog‘ining uzilishi va unga atsetilenning hujum qilishi uchun qulay muhit yuzaga keladi. Natijada atsetilen spirtlarining oraliq kompleks birikmasi hosil bo‘ladi va reaksiya tezligining ortishiga sharoit yaratadi. Oraliq kompleks birikmaning hosil bo‘lishida atsetilen spirtlarining titanli alkogolyatiga adsorbsiyalangan konsentratsiyaga teng bo‘lgan va adsorbsiyalanish to‘yinguncha atsetilenning berilishini oshirib borish talab etildi va reaksiya tezligini ham ortishiga olib keldi. Natijada bosimning ortishi kuzatildi, bu esa bir vaqtida sistemada molekulalar sonining ortishi, reaksiya o‘z yo‘nalishida to‘g‘ri borishini ta’minladi. Ammo atsetilen miqdorining haddan tashqari oshib ketishi katalizator aktivligini va faol markazlar sonini kamaytirishi, ularning o‘lchamlarini kichraytirishi, diffuziyalanishni sekinlashtirishi va tezda eskirib qolmasligini oldini olish maqsadida jarayonda atsetilenning berilishi doimiy nazorat qilib borildi. Sistemada hosil bo‘layotgan izopropanol katalitik zahar hisoblanganligi uchun uning miqdorini muntazam ravishda tahlil qilib turildi. Jarayonning oxirgi bosqichida atsetilen spirtlarining oraliq kompleks birikmasi gidrolizga uchrab mos ravishdagi vinil efirlarga aylanadi.

### Olingan natijalar tahlili

Ushbu usul bo‘yicha tanlangan atsetilen spirtlarini vinillash jarayoniga, mahsulot unumiga va reaksiyaning borishiga ta’sir qiluvchi omillar: harorat, reaksiya davomiyligi, erituvchi va katalizator tabiatи, boshlang‘ich moddalar, mol miqdori ta’sirlari tizimli ravishda tahlil etildi. Jumladan atsetilen spirtlari vinil efirlari unumiga harorat ta’siri o‘rganildi (1-jadval).

1-jadval


Atsetilen spirtlari vinil efirlari unumiga harorat ta’siri  
(reaksiya davomiyligi 10 soat,  $Ti(O'Pr)_4$  miqdori,  $C_{akt.}$  massasiga nisbatan 8%)

Sintez qilingan birikmalar	Atsetilen spirtlari vinil efirlari unumi, %				
	0 °C	40 °C	60 °C	80 °C	100 °C
1	48,3	66,6	92,5	91,3	80,0
2	44,6	62,5	88,0	86,3	77,7
3	42,7	61,0	86,4	86,0	75,0
4	39,0	58,2	85,1	83,5	72,3
5	36,0	56,6	84,2	83,0	69,8
6	28,0	49,8	80,0	78,0	65,8
7	49,6	70,0	95,0	92,7	74,3
8	45,6	63,0	88,8	85,0	73,1
9	37,4	57,0	85,0	83,7	71,0
10	33,3	54,0	83,3	82,2	68,7
11	31,1	52,0	82,4	80,0	67,0
12	27,6	47,3	75,0	73,3	64,8
13	22,0	35,5	67,8	65,6	46,0
14	25,3	40,6	71,0	68,5	59,0
15	42,0	59,0	84,6	83,2	77,0

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, mahsulot unumiga haroratning ta’siri sezilarli darajada ta’sir qilishi kuzatildi, jumladan, reaktordagi harorat 0 °C bo‘lganda atsetilen spirtlariga atsetilen nukleofil hujum qilsada, samaradorlik reaksiyaning to‘liq va oxirigacha bormasligi, atsetilenning katalizatorlar yuzasiga adsorbsiyasi kuzatilsada katalitik markazlar faolligi pastligi natijasida mahsulot unumi yuqori chiqmadidi. Reaktordagi haroratni 40 °C yoki 60 °C ga oshirganimizda esa mahsulot unumining ortishi kuzatildi, jumladan 60 °C haroratda vinil efirlar unumining eng maksimumda chiqishi aniqlandi. Bunda reaktordagi harorat 60 °C ga yetishi bilan  $Ti(O'Pr)_4$  katalizatori eng yuqori faollikga ega bo‘ldi hamda uning reaksiyaning borishiga ta’siri kuchayib bordi, reaksiyada esa eng

muqobil katalitik effekt hosil bo'ldi. Bu esa o'z navbatida atsetilen spirtlari molekulasiga atsetilenning borib birikishi uchun eng qulay muhit yaratilishiga olib keldi. Ushbu muhitda atsetilen spirtlari molekulasi deformatsiyaga uchrab, atsetilen bilan bog'lanishlar maksimum miqdorga yetganligini ko'rsatib berdi. Bundan tashqari bu haroratda sistemada hosil bo'ladigan vinil efirlar barqarorligi ham stabillashdi, atsetilen spirtlari molekulasidagi gidroksil guruhidan vodorodni to'liq chiqib ketishi,  $Ti(O'Pr)_4$  dagi barcha gidroksoizopropil radikallarining titandan uzilishi, o'z navbatida erkin holda qolgan gidroksoizopropil radikallari sistemada katalitik faol markazlar, molekulalar sonini hamda reaksiya tezligini oshishi uchun xizmat qildi. Tadqiqot natijalariga asosan harorat 60 °C bo'lganda  $Ti(O'Pr)_4$  ning muqobil harorati ekanligi aniqlandi, hamda katalizator aktivligining eng sermahsul, foydali davri, deb hisoblandi. Harorat 80 °C bo'lganda esa kutilgan mahsulot unumi ortmasdan, qisman kamayishi kuzatildi. Reaktordagi harorat 100 °C ga vinil efirlar unumi eng minimum miqdorda hosil bo'ldi. Bunda haroratning  $Ti(O'Pr)_4$  ning muqobil ishlaydigan ish haroratidan oshib ketganligi sababli katalizatorning katalitik faolligi kamayib ketishi, katalitik markazlarning passiv holatga tushib qolishi, vinil efirlarning qisman polimerlanishi, atsetilen spirtlarining degidratatsiyaga uchrashi kabi holatlar mahsulot unumining ortishiga to'sqinlik qilishi aniqlandi.

Atsetilen spirtlarini vinillash jarayoni uchun eng muqobil vaqtini aniqlash maqsadida vinillash reaksiyalarini 60-900 minut davomida olib borildi.




**1-rasm.** Atsetilen spirtlari vinil efirlari unumiga reaksiya davomiyligi ta'siri (Harorat 60 °C,  $Ti(O'Pr)_4$  miqdori,  $C_{akt}$  massasiga nisbatan 8%)

Rasmdan ko'rinish turibdiki, atsetilen spirtlarini vinillash reaksiyasi 600 minutda olib borilganda vinil efirlarning hosil bo'lish samaradorligi eng yuqori bo'lishi aniqlandi. Bunga sabab qilib dastlab atsetilen spirtlari  $Ti(O'Pr)_4$  bilan ta'sirlashib kuchli nukleofil zarrachalar, ya'ni alkogolyatlar hosil qiladi, alkogolyatlar hosil bo'lishi to'rt bosqichdan iborat ( $Ti(O'Pr)_4$  molekulasidagi to'rtta gidroksiizopropil anionining ajralib chiqishi) bo'lib, har bir bosqich uchun ma'lum bir vaqt talab etildi. Reaksiyaning keyingi bosqichida reaksiyaning tezligini belgilovchi muhim bosqichi, ya'ni oraliq mahsulotlar karbanionlar hosil bo'ladi. Karbanionlar beqaror bo'lib atsetilen bilan birikib oladi va faol katalitik kompleks birikmalarini hosil qiladi. Ushbu kompleks birikmalar sekin gidrolizlanganda to'liq atsetilen spirtlari vinil efirlariga aylanadi.

Ushbu jarayon uchun tanlangan  $Ti(O'Pr)_4$  da vinillash reaksiyasini birdan boshlanmasligi aniqlandi.  $Ti(O'Pr)_4$  katalizatorida vinillash sekinlik bilan, ya'ni biroz induksion (yetilish) vaqtidan so'ng boshlanadi. Bu davrda, reaksiya davomiyligi 600 minut davom etishi bilan katalizatorlarni aktivligi ortib bordi va maksimumga erishildi. Reaksiya davomiyligi 900 minut davom ettirilganda esa  $Ti(O'Pr)_4$  ning aktivligi biroz pasayishi aniqlandi, vaqtning katalizator muqobil ish sharoitidan (600 minutdan) ortganligi sababli barqaror ishlay boshladi. Bundan tashqari reaksiya vaqtini uzaytirish katalizatorning tez eskirishiga, ko'p miqdorda katalitik zaharlarning hosil bo'lishiga, g'ovaklarning yemirilishiga va qo'shimcha moddalar bilan berkilib (to'lib) qolishiga, atsetilen spirtlari va sistemada hosil bo'layotgan vinil efirlarning polimerlanishga qulay sharoit yaratilishiga sababchi bo'lishi aniqlandi.

Atsetilen spirtlari vinil efirlarini sintez qilish reaksiyasining borishi va mahsulot hosil bo'lish unumiga tanlangan katalizator ( $Ti(O'Pr)_4$ ) miqdorining ta'siri o'rganildi (2-rasm). Atsetilen spirtlari

vinil efirlarini sintez qilish reaksiyasi uchun tanlangan faollangan ko‘mir va  $Ti(O'Pr)_4$  asosida uch xil namunadagi  $Ti(O'Pr)_4/C_{akt}$  katalitik komponent tayyorlandi. Ya’ni tayyorlangan katalitik komponentda  $Ti(O'Pr)_4$  miqdori faollangan ko‘mir massasiga nisbatan 3, 8 va 15% miqdorda olindi. Olib borilgan tajriba natijalariga ko‘ra atsetilen spirtlari vinil efirlari eng maksimum miqdorda  $Ti(O'Pr)_4$  miqdori,  $C_{akt}$  massasiga nisbatan 8% olinganda hosil bo‘lishi kuzatildi.  $Ti(O'Pr)_4$  miqdorini 15% ga oshirilganda vinil efirlar hosil bo‘lish selektivligida o‘sish deyarli kuzatilmadi.



**2-rasm.** Atsetilen spirtlari vinil efirlari unumiga katalizator miqdorining ta’siri (Harorat, 60 °C, reaksiya davomiyligi 600 minut)

Katalizator miqdori minimum 3% miqdorlarda olinganda esa jarayonda yetarli miqdorda faol markazlar, molekulalar va karbanionlar hosil bo‘imasligi natijasida atsetilen diffuziyasi ham samarali natija bermadi. Atsetilenning reaksiyaga kirishmasdan reaktordan chiqib ketishi yoki dimerlanishi, atsetilen spirtlarining polimerlanishi, parchalanishi, degidratlanishi va sikllanishga uchrashi kuzatildi. Ushbu holatlар о‘з о‘rnida yuqori unum bilan vinil efirlar sintez qilish uchun asosiy to‘siqlar sifatida keltirildi.

Xulosa qilib aytganda atsetilen spirtlarini geterogen-katalitik usulda  $Ti(O'Pr)_4/C_{akt}$  katalitik komponenti yordamida atsetilen ishtirokida vinillash reaksiyasi 60 °C haroratda, 600 minutda,  $Ti(O'Pr)_4$  miqdori,  $C_{akt}$  massasiga nisbatan 8% qilib olinganda maksimum unum bilan atsetilen spirtlari vinil efirlari – **1- 92,5%, 2- 88,0%, 3- 86,4%, 4- 85,1%, 5- 84,2%, 6- 80,0%, 7- 95,0%, 8- 88,8%, 9- 85,0%, 10- 83,3%, 11- 82,4%, 12- 75,0%, 13- 67,8%, 14- 71,0% va 15- 84,6%** sintez qilindi va jarayon uchun muqobil sharoit qilib tanlandi.

### Xulosalar

Atsetilen spirtlarini nanotuzilishli katalitik sistema-  $Ti(O'Pr)_4/C_{akt}$  yordamida ilk bor atsetilen ishtirokida vinillash reaksiyasi o‘rganilgan, reaksiya mexanizmlari taklif etilgan, jarayonlarni eng muqobil sharoitlari topilgan, kinetik o‘zgarishlari aniqlangan, sintez qilingan birikmalarining tuzilishi, tarkibi va tozaligi zamonaviy fizik-kimyoiy tadqiqot usullarida isbotlangan.

Atsetilen spirtlarini vinillash jarayoniga substrat molekulasining tuzilishi, undagi o‘rinbosarlar tabiatи va fazoviy joylashuvi, katalizator tabiatи va miqdori asosida vinil efirlarning hosil bo‘lish samaradorlik qatori ishlab chiqilgan, unga ko‘ra  $13 < 14 < 12 < 6 < 11 < 10 < 5 < 15 < 9 < 4 < 3 < 2 < 8 < 1 < 7$  qatori bo‘yicha mahsulot unumining ortib borishi aniqlangan.

Atsetilen spirtlari vinil efirlarini gomogen-katalitik usulga nisbatan geterogen-katalitik usul bo‘yicha sintez qilish, ilmiy-tadqiqot natijalari, soha mutaxassislarining xulosalariga ko‘ra iqtisodiy jihatdan arzon, qulay, ekologik xavfsiz, oraliq hamda qo‘sishma mahsulotlarning miqdori nisbatan kam chiqishi aniqlandi. Bundan tashqari sintez qilingan vinil efirlari tozaligining pastligi, oraliq va

qo'shimcha mahsulotlarni ajratib olish uchun ortiqcha erituvchilar, qurituvchilar, suv va energiya sarf bo'lishi aniqlandi.

### **Adabiyotlar**

1. Saida Abduraxmanova, Abduvaxab Ikramov, Odiljon Ziyadullayev, Lochin Ablakulov, Sarvinoz Tirkasheva Yuqori asosli katalitik sistemalar yordamida ayrim aldegidlarni fenilatsetilen bilan etinillash reaksiyalari // Kimyo va kimyoviy texnologiya jurnali, 2020. №4, 39-46 b.
2. Trofimov B.A., Schmidt E.Yu., Skitaltseva E.V., Bidusenko I.A., Zorina N.V. Mikhaleva A.I. Base-catalyzed O-vinylation of tertiary propargylic alcohols with acetylene: first examples // Mendeleev Communications, 2012. Vol. 22. pp. 62-63.
3. Rashmi Roya and Satyajit Saha Scope and advances in the catalytic propargylic substitution reaction // The Royal Society of Chemistry, 2018. Vol. 8. pp. 31129–31193.
4. Wen-Ya Lu, Yong You, Ting-Ting Li, Zhen-Hua Wang, Jian-Qiang Zhao, Wei-Cheng Yuan CuI-Catalyzed Decarboxylative Thiolation of Propargylic Cyclic Carbonates/Carbamates to Access Allenyl Thioethers // Journal Organic Chemistry, 2021, Issue 86, Vol. 9. pp. 6711–6720.
5. Tao Wang, Xin-liang Chen, Li Chen, and Zhuang-ping Zhan. Atom Economical Chemoselective Synthesis of 1,4- Diynes and Polysubstituted Furans/Pyrroles from Propargyl Alcohols and Terminal Alkynes // Organic Letters, 2011. Vol. 13, № 13. pp. 3324-3327.
6. Andreas J. Butzelaar, Sven Schneider, Edgar Molle, and Patrick Theato Synthesis and Post-Polymerization Modification of DefinedFunctional Poly(vinyl ether)s // Macromolecular Rapid Communications, 2021. Vol. 42. pp. 2100-2133 (1-5).
7. Reppe W. Neue entwicklungen auf dem gebiete der chemie des acetylens und kohlenoxyds: – Heidelberg.: Synthesis, 1999. p.700.
8. Plate N.A., Slivinsky E.V. Fundamentals of chemistry and technology of monomers: – M.: Nauka, 2012. p.619
9. Кармова Н.В Квантово химическое моделирование механизмов реакций ацетилена в суперосновный системе МОН/ДМСО // Журнал органической химии, 2011. №6. – С. 72-75.
10. Трофимов Б.А., Малышева С.Ф., Гусарова Н.К., Белогорлова Н.А., Никитин М.В., Гнедин Д.В. Реакции виниловых эфиров с вторичными фосфинами // Журнал органической химии, 1997. № 1. – С. 63-66.
11. Орлов А.В., Комиссарова М.Г., Шиткова О.В. Синтез виниловых эфиров бетулина прямым винилированием ацетиленом в суперосновной среде KOH/ДМСО // Журнал Химия и устойчивого развития, 2011. №19. – С. 223-226.
12. Mahatova G.B., Ziyadullaev O.E., Abdurahmanova S.S., Mavloniy M.I. Ayrim ketonlar va aminlar asosida yangi aromatik atsetilen spirlari sintezi, taxnologiyasi va ularning naft-gaz sanoatida qo'llanilishi // O'zbekiston naft va gaz jurnali, 2017. №1. 58-62 b.
13. Trotush I.T., Zimmermann T., Schuth F. Catalytic Reactions of Acetylene: A Feedstock for the Chemical Industry Revisited Chemical Industry Revisited. Chemical Reviews, 2014. Vol. 114, № 3. pp. 1761-1782.
14. Отамухамедова Г.К., Абдирахимов М.И., Саматов С.Б., Зиядуллаев О.Э., Абдурахманова С.С. Гетерогенно-катализитическое винилирование ароматических ацетиленовых спиртов / III Всероссийской научной конференции (с международным участием) «Актуальные проблемы теории и практики гетерогенных катализаторов и адсорбентов», Иваново, 2018. – С. 214-216.
15. Отамухамедова Г.К., Зиядуллаев О.Э., Саматов С.Б., Эргашев Ё.Т., Абдирахимов М.И. Синтез ацетиленовых спиртов и их виниловых эфиров / V Международная конференция по химии гетероциклов «Новые направления в химии гетероциклических соединений», Владикавказ, 2018. – С. 768.

# **SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК**

**SCIENTIFIC REPORTS**

Texnik muharrir

**A. I. Inatov**

**Muharrirlar:**

**X. Tashpulatov**  
**A. Xo'janov**  
**L. Ibragimov**

- k.f.n., dotsent  
- PhD, dotsent  
- PhD, dotsent

**Mas'ul muharrirlar:**

**A. Sh. Yarmuxamedov** - f.-m.f.n.  
**D. Xursandov** - PhD, dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti  
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.  
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87  
E-mail: [axborotnoma@samdu.uz](mailto:axborotnoma@samdu.uz)

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.  
Bosishga 30.03.2022 yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00.  
Buyurtma raqami 38. Adadi 30 nusxa.

**Manzil:** 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.  
**SamDU bosmaxonasida chop etildi.**